

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI

“KASB TA'LIM” FAKULTETI
KASB TA'LIM (INFORMATIKA VA AT)
KAFEDRASI

“INFORMATIKA VA AT” FANIDAN

Kurs ishi

Komissiya raisi:

dots. O. Jakbarov

A'zolar:

ass. F. Irisqulov

ass. S. Komilov

Bajardi:

5-ktiat-13 gurux

S. Otamirzayev

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Asosiy qism.....	
2.1 Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamyati.....	14
2.2 Norin tumanining hududiy geografik joylashuvi mavzusida web saxifa yaratish bo'yicha nazariy ma'lumotlar taxlili.....	17
2.3 Web saxifani yaratishda foydalanilgan dasturiy vositalarning imkonyatlari.....	23
2.4 Web saxifani yaratish ketma- ketligi.....	33
2.5 Yaratilgan Web saxifadan foydalanish yo'riqnomasi.....	42
3. Internet ma'lumotlar	48
4. Xulosa.....	52
5. Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati.....	54
6. Ilova.....	55

Kirish

**“Biz tezkor texnikaviy taraqqiyot
Shidad bilan rivojlanayotgan
Muntazam yangilanayotgan
Zamonaviy yuqori texnologi-
yalar axborot kompyuter tizimi-
lari asrida yahayotganimizni
unitmasligimiz kerak”**

Kirish

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyasi xalq xo'jaligining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Yildan-yilga kompyuter texnologiyalari rivojlanib, takomillashib va mukammallashib bormoqda.

Kompyuter texnologiyalarining juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan matn muxarrirlari, elektron jadval protsessorlari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va Web texnologiyalari kabi dasturiy vositalirining yaratilishi barcha sohalarida o'z samarasini bermoqda.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari yangi fan sifatida XXI asr boshlarida informatika fanining rivojlanishi asosida kelib chiqdi. Informatika inson faoliyatining mustaqil sohasi sifatida yuzaga kelishi esa birinchi navbatda kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

1994 yil “O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi” ishlab chiqildi. Bu dastur uch maqsadni o'z ichiga oladi: milliy axborot - hisoblash tarmog'i;

EHMni matematik va dasturiy ta'minlash;
shaxsiy kompyuter.

Dasturda vazirliklarda axborot tarmoqlari, milliy axborot-hisoblash tarmog'ini yaratish, kompyuter va hisoblash vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari keltirilgan.

Axborot- atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Ma'lumotlarga u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanmaydigan, balki faqat saqlanadigan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati tug'ilsa, u holda bu ma'lumotlar axborotga aylanadi. Shu sabab axborotlarga foydalanadigan ma'lumotlar deyiladi. Masalan, qog'ozga biror telefon raqami yozilgan bo'lsa va u birovga ko'rsatilsa, undan foydalanib bo'lmaydi. Biroq shu telefon raqami yoniga biror korxona yoki tashkilot nomi yozib qo'yilsa u ma'lumot axborotga aylanadi.

Axborotdan foydalanishning imkoniyati va samaradorligi uning sifat ko'rsatgichlariga bog'liqdir. Axborotning sifat ko'rsatgichlarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- axborotning mazmundorligi;
- axborotning etarliligi (to'liqligi);
- axborotning aktuallligi;
- axborotning o'z vaqtidagiligi;
- axborotning aniqligi;
- axborotning ishonarliligi;
- axborotning barqororligi.

Axborotning bu sifat ko'rsatgichlari foydalanuvchining to'g'ri qaror qabul qilishi uchun juda muhimdir.

Jamiyatni axborotlashtirishda axborot texnologiyalari muhim omil bo'lib hisoblanadi. "Axborot texnologiyalari" iborasidagi texnologiya so'zi yunoncha san'at, mahorat, o'quv ma'nolarini anglatib, u jarayon demakdir. **Jarayon** - deganda oldinga qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatlarning muayyan yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishda texnologiya moddiy mahsulot olish uchun materiyanining sifatini yoki holatini o'zgartiradi. Demak, moddiy ishlab chiqarish texnologiyalari deganda xom ashyo yoki materiallarning holati, xususiyatlari, shakllarini hayta ishlash, tayorlash, o'zgartirish vosita va uslublari jamlanmasini belgilovchi jarayon tushuniladi. Moddiy zaxiralar - zavod va fabrikalarda ma'lum bir ishlab chiqarish texnologiyasining qo'llanilishi asosida qayta ishlanib inson yoki tizim ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarga aylantiriladi.

Xuddi shunday, axborot texnologiyalari deganda ob'ekt, jarayon yoki hodisa haqidagi yangi axborotni olish uchun ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va

uzatishning vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanuvchi jarayon tushuniladi. Axborot texnologiyalarining maqsadi inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror ishni bajarish bo'yicha qaror qabul qilishdir.

Fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi axborotni qayta ishlashning yangi vositalarini yaratdi. Hozirgi jamiyatda axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi kompyuterdir. Shaxsiy kompyuterlarning axborot sohasiga tadbiq etilishi va aloqaning telekommunikatsiya vositalarida qo'llanilishi axborot texnologiyalari rivojlanishida yangi bosqichni belgilab berdi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tarkibiga telekommunikatsiyaviy texnologiyalar ham kiradi. Ular turli vositalar orqali ma'lumotlarni uzatishni ta'minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari - shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlashning uslublari, hamda texnik va dasturiy vositalarining jamlanmasidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari qayta ishlanayotgan axborot turi bo'yicha farqlanadi. Lekin ular integratsiyalashgan texnologiyalarga birlashishi mumkin. Integratsiyalashgan axborot texnologiyalari bir necha turdagi axborotlarni birgalikda qayta ishlash xususiyatiga ega.

Qayta ishlanadigan axborot turlari:

oddiy ma'lumotlar;

- matnlar;
- grafik va rasmlar;
- bilimlar;
- real dunyo obektlari.

Bularga mos axborot texnologiyalari turlari quyidagilar:

- MBBS, Algoritmik tizimlar, jadval protsessorlari;
- Matnli va gipermatnli protsessorlar;
- Grafik protsessorlari;
- Ekspert tizimlari;
- Multimedia vositalari.

Yaqin yillargacha grafik, audio va video tasvirdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshirish imkoniyati uncha katta emas edi. Biroq so'ngi yillarda bu sohada katta siljishlar bo'ldi. Endilikda kompyuterda juda murakkab bo'lgan muxandislik va me'morlik chizmalarini tayyorlash, san'at asarlarini yaratish uchun maxsus integratsiyalashgan axborot texnologiyalari va harakatlantiruvchi

tasvirlarni aks ettiruvchi multimedia vositalari mavjudki, ulardan juda katta effekt olish uchun foydalanish mumkin.

Axborot tizimiga ta'rif berishdan oldin “tizim nima?” degan savolga javob beraylik.

Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zida ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadigan bir necha turdagi elementlar majmui tushuniladi. Informatika va axborot texnologiyalari fanlarida “tizim” tushunchasi ko'proq texnik vositalar va dasturlar to'plamiga nisbatan ishlatiladi.

Axborot tizimi -deb belgilangan maqsadga erishish uchun axborotni saqlash, izlash, ajratish, uni qayta ishlash printsiplari, usullari va vositalarining o'zaro bog'langan majmuiga aytiladi. Axborot tizimi asosida ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni tartiblash, avtomatik ravishda izlash va ma'lumot almashish mumkin. Axborot tizimida uning elementlari sifatida kompyuter, kompyuter tarmoqlari, axborotlar, dasturiy ta'minotlar, odamlar va boshqalarni qarash mumkin.

Axborot tizimlari aniq bir ob'ekt uchun yaratiladi va shu ob'ekt ma'lumotlarini saqlaydi va qayta ishlaydi. Masalan, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bunga misol bo'la oladi.

Axborot tizimlari nafaqat axborotni qayta ishlash va saqlash, balki yozuv chizuv ishlarini avtomatlashtirish, qarorlarni qabul qilish, boshqaruv ob'ekti faoliyati samaradorligini oshirish kabi maqsadlarda ham keng qo'llaniladi.

Axborot tizimlarining avtomatlashtirilgan va avtomatik turlari ma'lum. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida boshqarish yoki ma'lumotni qayta ishlash funksiyasining bir qismi avtomatik ravishda, qolgan qismi esa inson tomonidan bajariladi.

Avtomatik axborot tizimlarida boshqarish va ma'lumotni qayta ishlashning barcha funksiyalari texnik vositalarada, inson ishtirokisiz amalga oshiriladi (masalan, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish).

Qo'llanish sohasiga qarab axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;
- loyihalashtirishni avtomatlashtirish;

- tashkiliy jarayonlarni boshqarish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish.

Ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarishda axborot tizimlari ilmiy xodim faoliyatini avtomatlashtirish, statistik axborotlarni tahlil qilish va tajribalarni boshqarish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Loyihalashtirishni avtomatlashtirishda axborot tizimlari yangi texnika ishlab chiqaruvchilar va muxandis loyihachilar ishlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan bo'ladi.

Tashkiliy jarayonlarni boshqarish axborot tizimlari - shaxslar funktsiyalarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallanadi. Bu sinfga bank, birja va ofislar ishlarini boshqarishning axborot tizimlari kiradi. Texnologik jarayonlarni boshqarish axborot tizimlari turli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallanadi.

Qo'llanish sohasidan qat'iy nazar, ular bir qator ta'minotlar bilan bog'liqdir. Ular dasturiy, texnik, axborot, matematik, tashkiliy, huquqiy va lingvistik ta'minotlardir.

Axborot ta'minot - deganda axborot tizimining ma'lumotlar bazasini yaratish, uni tashkil qilish uslub va vositalar yig'indisi tushuniladi.

Dasturiy ta'minot -deganda kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturiy vositalar yig'indisi tushuniladi.

Texnik ta'minot -deganda ma'lumotlarni qayta ishlovchi qurilmalar tushuniladi. Bunga kompyuterdan tashqari telekommunikatsiya va aloqa vositalari ham kiradi.

Matematik ta'minot -deganda ma'lumotlarni qayta ishlashning usullari va ularning algoritmlari tushuniladi.

Huquqiy ta'minot -deganda axborot tizimlarini yaratish va ular faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi tushuniladi.

Lingvistik ta'minot -deganda inson va kompyuter muloqatini ishlab chiqish va ta'minlash samaradorligini oshirishda foydalanishning turli bosqichlarida ishlatiladigan til vositalari yig'indisi tushuniladi.

Axborot tizimlarining yaratilishi elektron hisoblash mashinalarining yuzaga kelishi bilan bog'liq. Dastlabki axborot tizimlari o'tgan asrning 50-yillari boshlarida paydo bo'ldi. Bu yillarda buxgalterlik hisob-kitoblarni bajarish uchun

axborot tizimlari yaratildi. Bu qog'oz hujjatlarini va hisob kitoblarni birmuncha qisqartirishga olib keldi. 60-70-yillar axborot tizimlariga bo'lgan munosabaat butunlay o'zgardi va davriy hisobotlarni amalga oshiruvchi, hamda hisoblash jarayonini avtomatlashtiruvchi boshqarish tizimlari ishlab chiqildi. 70-80-yillar boshlarida qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi va uni tezlashtiruvchi nazorat boshqaruvining axborot tizimlaridan foydalanila boshlandi.

Qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizimlari va ularga muvofiq axborot texnologiyalari asosan amerikalik olimlar tomonidan yuzaga keldi. Bunga shaxsiy kompyuterlar, amaliy dasturlarning standart paketlari keng tarqalganligi va sun'iy intellekt tizimlarini yaratishdagi muvaffaqiyatlar imkon berdi. 80-yillardan keyin kompyuterlarning paydo bo'lishi axborot tizimlarining yangi oilalarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu davrdan boshlab strategik axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan ofislar yaratila boshladi.

“Sun'iy intellekt” tushunchasi dastlab AQShda paydo bo'ldi va keyinchalik boshqa davlatlarda ham qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda sun'iy intellektni yaratish bo'yicha ko'pgina davlatlarda katta ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Intellekt - bu insonning tafakkur yuritish qobiliyatidir. «Intellekt» so'zi lotincha «intellectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki faxmlash (akl) ma'nosini beradi.

«Intellekt» so'zini aniqlovchi, psixologlar tuzgan uchta tushunchani (Katta sovet entsiklopediyasi va Vesterning amerika lugatidan olingan) keltiramiz. Bu tushunchalar «intellekt» tushunchasi mazmunini yanada chuquriroq aniqlash uchun yordam beradi.

Intellekt- fikrlash kobiliyati, ratsional bilish va shunga o'xshash. Umumiy holda esa fikrlash, shaxsni aqliy rivojlanishi sinonimi bo'lib xizmat qiladi.

Intellekt (aql) -o'z xulqini sozlash yuli bilan har qanday (ayniqsa yangi) holatga etarli baho berish qobiliyati.

Intellekt- turmushdagi dalillar o'rtasidagi o'zaro borliqlikni tushunish qobiliyati. Bu qobiliyat belgilangan maqsadga erishishga olib boruvchi harakatlarni ishlab chiqish uchun kerak bo'ladi.

Yukorida aniqlangan «intellekt» tushunchasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ya'ni intellekt faqat insonlarga tegishli va odam aqliy kobiliyatining o'ziga xos o'lchovidir. Psixologlar shunday maxsus usullar yaratdilar, bu usullar yordamida tajriba orqali odamning intellektual (aqliy) darajasini aniqlash mumkin

bo'ldi. Natijada shu narsa aniqlandiki, intellektning individual darajasi o'rtasidan surilishi (ogishi) odamning fizik imkoniyatlari darajasi kabidir.

Agar o'rtacha aqliy qobiliyat 100 ball deb qabul qilinsa, u xolda o'ta kobiliyatli insonlarda bu ko'rsatkich 150, 180, xattoki 200 ballga etishi mumkin. Amerikalik shaxmatchi, jaxon eks-chempioni Robert Fisherning bu kursatkichi 187 ball bo'lgan, XIX asr yarmida yashagan angliyalik mantiqchi Djon Styuart Mill uch yoshidayoq qadimgi yunon tilida gapira olgan va uning ko'rsatkichi 190 ballgacha borgan. Shuni qayd qilish lozimki, evolyutsiya davrida intellekt birmuncha bir tekis, inqilobiy rivojlanish davridan toki zamonaviy inson intellekti paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davrni bosib o'tgan.

Intellektning evolyutsion rivojlanishi berilgan bosqichdan birmuncha yuqori printsiptial, a'lo darajadagi tashkil topgan bosqichga o'tish bilan davom etadi. Shuning uchun jamiyatning turli rivojlanish bosqichlarida yashagan insonlarning intellektini bir-biriga solishtirib bo'lmaydi.

«**Sun'iy intellekt**» tushunchasiga turlicha ma'no kiritish mumkin. Turli mantiq va hisoblash masalalarini echuvchi kompyuterdagi intellektni e'tirof etishdan tortib, to insonlar yoki ularning ko'pchilik qismi orqali echiladigan masalalar majmuasini echadigan intellektual tizimlarga olib boradigan tushunchagacha kiritish mumkin.

Sun'iy intellekt -bu inson intelektining ba'zi vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlar xususiyati-dir.

Sun'iy intellekt shaxsning nisbatan barqaror bo'lgan, masalan, axborotni qabul qilish va undan ma'lum masalalarni hal qilishda foydalana olishi kabi aqliy qobiliyatini ifodalaydi. Kompyuterda hal qilinayotgan masalalarning ko'pchiligi, hatto ayrimlari anchagina murakkab bo'lsa ham intellektual hisoblanmaydi. Lekin qo'yilgan masala murakkab bo'lib, agar uni echishning aniq uslubi (algoritmi) topilgan va unga mos dastur ishlab chiqilgan bo'lsa, u ishni intellektual yoki haqiqatdan ijodiy hal qilingan деб hisобласа бо'лади. Лекин шуни айтиш керакки бу барча масалалар учун ҳам таълуқли эмас. Inson murakkab masalalarni echishda ma'lum qonuniyatlarni bilishga asoslanadi. U matematik teoremlar yoki amaliyotdan olingan qoidalardan foydalanadi. Demak, intellektual tizimning asosiy vazifasiga to'plangan bilimlar bazasini tadbiq etish va undan foydalangan holda murakkab masalalarni echishning optimal yo'llarini izlash, hamda uning echimini topish ham kiradi.

Bilimlar bazasi jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, uning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqidagi bilimlarni o'ziga mujassamlashtiradi. Bilimlar bazasida jamlanadigan ma'lumotlar matn, belgi, raqam, jadval, grafik, rasm va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Haqiqiy voqelikni to'la bilish, axborotlar bilan chiqish, qayta ishlangan axborotlarni saqlash va ulardan foydalanish imkoniga ega bo'lgan tizimlarga bilimlar bazasi deyiladi. Ular tarkibiga ma'lumotlar bazasi va dasturiy vositalar kiradi. Bilimlar bazasini unga qo'llaniladigan interfeysga ko'ra shartli ravishda uchga ajratish mumkin.

Birinchisi -intellektual axborotli izlash tizimlari. Bu tizim orqali ish joyidan turib bilimlar bazasidan kerakli axborotni izlash va tarmoq kutubxonasidan foydalanish mumkin.

Ikkinchisi -hisoblash mantiqiy tizimlari. Ular yordamida modellarning murakkabligiga qaramasdan boshlang'ich ma'lumotlar asosida boshqarishning ilmiy masalalarini rejalashtirish va loyihalashtirish masalalarini hal qilish mumkin.

Uchinchisi -ekspert tizimlar.

Yuqori malakali mutaxassislar bilimiga ega bo'lgan tizimlar (bu tizimlar kam tajribaga ega odamlarga maslaxatchi bo'lib xizmat qilishi mumkin) yaratish g'oyasi hisoblash texnikasi endi oyoqqa turayotgan bir paytda paydo bo'lgan edi. Bunday tizimlarni (sun'iy intellekt ishlari doirasida) amalda qo'llanishi haqida taxminan 60-yillar o'rtasida xabar berildi. Keyinchalik bunday tizimlar «ekspert tizimlar» degan nom oldi.

Ekspert tizim (ET)lar yangi turdagi tizim bo'lib, informatsion-izlovchi va avtomatik boshkaruv tizimlardan sifat jixatidan shu bilan farq qiladiki, bunday tizimlar qiymat (ma'lumot)lar bilan emas, balki bilimlar bilan ishlaydi.

Ekspert tizimlarga ta'rif berishdan oldin quyidagi tabiiy holni ko'rib o'taylik. Endigina ToshMIn bitirgan yosh shifokor jumhuriyatimizning uzoqroq kishlog'iga ishga junatildi. Birinchi kundan boshlab u turli xil bir-biriga zid xolatlarga duch kelib qolishi mumkin va unda echim qabul qilish zaruriyati tug'iladi. U bemorning kasalligini aniqlashi va uni davolashning usulini tanlashi kerak. Buning uchun undan ko'p narsani bilish talab qilinadi. Lekin ko'pincha unga yuqori malakali hamkasbining bilimi va yordami chindan ham kerak bo'ladi. Agar yosh shifokor

yuqori malakali mutaxassislar kollektivida ishlasa va unga bu yordam tezkorlik bilan ko'rsatilsa yaxshi. Agarda bu imkoniyat bo'lmasa unda nima qilishi kerak? Telefon orqali qo'ngirok qilish, leksiya konspektidan yoki kitobdan bilim izlash kerak bo'ladi. Ko'pincha bunga uning vaqti yo'q. Shunda vrachga ekspert tizimlar yordamga kelishi mumkin.

O'zimizcha tasavvur qilaylik, shifokorda shunday tizim (ET) bor bo'lsin. Shifokor unga maslahat uchun murojaat qiladi. Ular orasida quyidagi muloqot bo'lib o'tadi:

Shifokor - Menga yordam kerak. Quyidagi kuzatilgan alomatlar... bo'yicha kasallikni aniqlash kerak.

ET - Holatning mohiyatini aniqlab tushunib olishim uchun men quyidagi ma'lumotlarni... bilishim kerak.

Shifokor - Bu ma'lumotlar bunaqa...

ET - Kasalda bunday... (narsalar) kuzatilmayaptimi? Va shunga o'xshash muloqot davom etadi.

Muloqot oxirida ET shifokorga qo'yilishi kerak bo'lgan diagnoz bo'yicha o'z fikrini aytadi. Agarda bitta echim qabul qilish uchun ma'lumotlar etishmasa, ET shifokorga diagnozlar tuplamini beradi. Tizimdan zarur xabarlarini olib, shifokor kasalni davolash kursi bo'yicha yakunlovchi qarorni qabul qiladi.

Ekspert tizimlar dasturlashtirish uchun qiyin bo'lgan masalalarni echish uchun qullaniladi. Uning asosiy xarakterli xususiyati - bilimlarni tuplash, qayta ishlash, umumlashtirish, takliflar kiritish va bu takliflarni izohlay bera bilish xamdir.

Ekspert tizimlar bilimlarning juda katta hajmini to'plash qobiliyatiga ham ega bo'lishi mumkin.

Ekspert tizimlar -xulosa chiqarishning qoida va mexanizmlari yig'indisiga ega bo'lgan bilimlar bazasini o'z ichiga olgan sun'iy intellekt tizimidir.

Ekspert tizimlari yordamida kompyuterda mavjud bilimlardan foydalangan holda murakkab tizimlardagi jarayonlarni anglash, tashxis qilish, echimlarni qabul qilish, turli ishlarning rejalarini, farazlarini ishlab chiqish va tekshirish, shuningdek, matematik modellarni ishlatish murakkab bo'lgan hollarda ma'lum echimlarni va qoidalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Oxirgi paytlarda axborotni himoya qilish muammosi o'ta dolzarb bo'lib bormoqda. Buning boisi shundaki jahonda axborotlar hajmi kun sayin oshib bormoqda va kompyuterlashtirish ko'lami kengaymoqda. Bu jarayon qanchalik kuchaysa ruxsat etilmagan axborotlarga kirishga, ularni o'g'irlashga, zarur axborotlarni u yoki bu yo'l bilan yo'q qilishga bo'lgan yovuz niyatli kimsalar yoki "kompyuter bezorilari" shunchalik ko'payaveradi.

Axborot xavfsizligi - hali yosh, informatsion texnologiyalar sohasida tez rivojlanib kelayotgan yo'nalishlardan biridir. Axborot xavfsizligi (AX) so'zining ma'nosi juda keng ma'noda ishlatilib, axborot doirasida biror bir jamiyat, davlat va xalqlarning qiziqishini himoyalash tushuniladi. AX ko'pqirrali va ko'psohali bo'lib axborot ob'ektlariga zarar etkazishning oldini olish uchun har xil tasoddifiy yoki oldindan o'ylangan tashqi ta'sitrlardan ma'lumotlarni himoyalashdir.

Axborotlarni himoyalash -bu ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks tadbiridir. Axborotlarni himoyalash, jamiyatda axborot muhitining fuqorolar, tashkilotlar va davlat manfaatlarida shakllanishi, foydalanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan himoyalash tushiniladi. Umuman olganda axborotlarni himoyalash deganda:

- Axborotlarning butunligini ta'minlash;
- Axborotlarni saqlashda ularni buzulmaslik va almashib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- Maxsus ruxsatga ega bo'lmagan shaxslarning davlat va jamiyat uchun juda zarur bo'lgan axborotlardan foydalanishining oldini olish kabilar tushuniladi.

AXning asosiy tashkil qiluvchilari quyidagilardir:

Mumkinlik (dostupnost) -bu talab qilingan xizmat qiliuvchi ma'lumotlarni kerakli vaqtda olish imkoniyatidir.

Yaxlitlik (tselostnost) -bu ma'lumotlarning aktualligi va qarama-qarshi bo'lmasligi, ularni ruxsatsiz o'zgartirilishi va buzilishidan himoyalashdir.

Maxfiylik (konfedentsiallik) -bu ma'lumotlarga yashirin ravishda ruxsatsiz

kirishdan himoyalalanishdir.

Ayrim hollarda ma'lumotlarni ruxsatsiz ko'chirishdan himoyalalanish ham AXning asosiy tashkil etuvchisi sifatida tushiniladi.

Xavf-bu ma'lum ma'noda axborot xavfsizligi buzilishining potentsial imkoniyati. Xavfni amalga oshirishga qaratilgan har qanday harakatga hujum ("ataka") deyiladi. Bunday harakatga oldindan g'arazli ravishda o'ylangan, ya'ni rejalashtirilgan harakat deyiladi.

Hujumning eng xavfli usuli -bu axborot tizimlariga zarar etkazuvchi dastur ta'minolarining ishlab chiqarilishidir. Bunday zarar etkazuvchi dasturlar sinfi quyidagilardir:

- Zarar etkazuvchi funktsiyalar;
- Tarqatuvchi usullar.

Zarar etkazuvchi funktsiyalarga “mantiqiy bombalar” deyiladi va ular quyidagilarga mo'ljallangan:

- Boshqa zarar etkazuvchi dasturlar ishlab chiqish;
- Resurslarni agressiv holda talab qilish va ishlatish;
- Dasturni (yoki ma'lumotlarni) o'zgartirib yoki buzub yuborish;
- Hujum qilinayotgan tizim ustudan tekshirishni o'ziga olish.

Mantiqiy bomba dasturlari qistirma dasturlar deyilib ular oldindan biror bir dasturga joylashtirilgan bo'ladi. Bu “bombalar” maxsus signal yoki avvaldan o'rnatilgan vaqt bo'yicha harakatlarga keltiriladi va natijada axborotlarda o'zgartirishlar qilib, ularni ishdan chiqaradi.

Tarqatuvchi mexanizmlarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- Viruslar -boshqa dasturlarga tarqalish xususiyatiga ega dasturli kod.
- Chervi -o'z nusxalarini informatsion tizimlarga tarqatuvchi dasturli kod.

Axborotlarga xavf soluvchi bunday dasturlar ayrim shaxslar tomonidan asosan katta foyda olish yoki o'zini ko'rsatish uchun ishlab chiqiladi.

Axborotlarning buzilishi yoki yo'qolib ketishida katta miqdorda zararlar keltiradigan xatoliklar asosan shtatda o'tirgan foydalanuvchilar, operatorlar, administratorlar va boshqa axborot tizimiga xizmat ko'rsatuvchilarning ishga bo'lgan sovuqxonligi, kiritilayotgan axborotlarning nato'g'ri kiritilishi yoki dastur xatosi bilan yuzaga keladi. Bunday xatoliklar “ataylab qilinmagan” xatoliklar deyilib, ko'pincha axborotlarning 50-60% gacha yo'qolib yoki buzilib ketishiga sababchi bo'ladi.

Asosiy qism

2.1 Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati:

Menga kurs ishi sifatida Namangan viloyati Norin tumanining hududiy geografik joylashuvini web sahifa qilib yaratish topshirilgan. Ushbu topshiriqni bajarishda quyida ketma-ketlikdagi ishlarni bajarish talab etiladi.

Kirish

Informatika fanining kelib chiqish tarixi va rivojlanish istiqbollari fanga oid Vazirlar maxkamasining "Sog'lom bola" yili davlat dasturida informatikaga oid yangiliklar hamda erishilayotgan yutuqlari haqida;

Asosiy qism

Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati

Menga kurs ishi sifatida berilgan topshiriqlarni rejalashtirib, har bir reja bosqichida nimalarni yoritish va amalda foydalanish haqida;

Amaliy ahamiyati

Tayyorlagan web sahifa amalda qayerda, kimlar foydalanish haqida;

Kurs ishi bo'yicha nazariy malumotlar taxlili

Namangan viloyati Norin tumanini geografik joylashuvini web sahifani yaratishda foydalanadigan dasturiy vositalarning imkoniyatlari haqida;

Web sahifani yaratishda topshiriqlarni bajarishni bosqichma bosqich yaratish;

Yaratilgan sahifadan foydalanish yo'riqnomasi

Web sahifadan foydalanishda ularni bosqichlari va ulardan foydalanishdagi qulayliklar haqida;

Internet ma'lumotlari:

Kurs ishingam doir internetdan olib foydalangan ma'lumotlar, yangiliklar va qo'shimcha ma'lumotlar;

Xulosa

Menga berilgan topshiriqni tayyorlash davomida o'rgangan usullar va ma'lumotlar, yangiliklar va qo'shimcha malumotlar haqida fikr mulohazalar;

Foydalanilgan adabiyotlar internet saytlar ro'yxati

Foydalanilgan ma'lumotlar bitilgan adabiyotlar va internetdagi saytlar;

Ilova

Topshiriqni tayyorlashda foydalanilgan ma'lumotlarni kompyuter nushasini va electron variantini mavzularimga oid internet ma'lumotlari.

Menga berilgan topshiriqni amaliy ahamiyati shundaki ushbu men tayyorlagan kurs ishi Namangan viloyati Norin tumanining hududiy geografik joylashuvi haqida web sahifa qilib yaratish.

Bu sahifa kelajakda internetga joylashgandan so'ng butun Namangan O'zbekiston borki laxon miqiyosida ham keng foydanib, Norin tumani ham O'zbekistonimizning chiroyli unumli serhosil yerlaridan biri ekanligini ko'rsatib bera olish.

2.2. Namangan viloyati Norin tumanini hududiy geografik joylashuvi mavzusida web sahifa yaratish bo'yich nazariy ma'lumotlar taxlili

Menga Norin tumanining hududiy geografik joylashuvi mavzusi bo'yicha web sahifa tayyorlash topshirigi berilgan edi. Men mavzuyimni quyidagicha yoritaman. Gullar shahri namanganimizda Norin tumanidek chiroyli o'lka borligi bundan tashqari hududiy joylashuvini, boshqa tumanlardan qolishmasligini xaqida ma'lumot beraman.

TUMAN HAQIDA

Norin tumani viloyatning janubiy sharqiy qismida joylashgan bo'lib. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan 1962-1973 yillarda va 1988-89 yillarda Uchqo'rg'on tumani tarkibida bo'lgan. Tuman g'arbdan viloyatning Namangan va Uychi, shimoldan Uchqo'rg'on tumanlari, janub va sharqdan Andijon viloyatining Baliqchi va Izboskan tumanlari bilan chegaradosh.

Maydoni 207.1 kv.km

Axolisi 142.6 ming kishi

Norin tumanida Xaqqulobod shaxar, 8 ta qishloq fuqarolar yig'ini (Paxtaqishloq, Toshloq, Xo'jaobod. To'da, Marg'izor, Norinkapa, Uchtepa, Kurgontepa) va 55 ta maxalla fuqorolar yig'inlari mavjud. **Tabiati** Norin tumani viloyatning sharqiy qismida Farg'ona tizmasini etaklarida joylashgan. G'arbiy chegaralari bo'ylab Qoradaryo oqib o'tadi, reliefi past-baland tekisliklardan iborat (ball 600-800) metr tog' etaklari paleogen davrining gil, oxaktosh, mergel jinslaridan tarkib topgan Norin xavzasi yoppasiga kondomeratdan iborat. Qoradaryo xavzasida kondomerat ustuni o'nlab metr qalinlikda qoplab o'tgan qiyosiy katta maydonda tekislik xosil qilgan. Norinning qayr tekisligi Uchqo'rg'on qishlog'idan boshlab 2-3 km kengaydi: bu yerda qumoq xamda qumloq jinslar keng tarqalgan. Tuman xududining shimolidan janubga tomon katta Andijon kanali kesib o'tadi. Tumanning janubiy g'arbiy tomonidan Qoradaryoning eski uzanidan o'tadigan Qolgandaryo barcha sizot suvlarini yig'ib Qoradaryoga quyiladi. Tuprog'i janubiy qismida botqoq torfli, Shimolda bo'z tuproq. Norin Qoradaryoga qo'shiladigan yerda o'tloqli botqoq, o'tloqli tuproqlar uchraydi. Iqlimi quruq. Kontinental yozi issiq. Qishi sovuq, yanvarning o'rtacha temperaturasi 6 gradus iyulniki 27, Yillik yog'in 190-215 mm . Vegetatsiya davri 233 kun. Tuman xududi xaydaladigan yerlardan iborat.

Aholi


Axolisi asosan o'zbeklar, Shuningdek tojik, qirg'iz, koreys va boshqa millatlar yashaydi. Axolining o'rtacha zichligi 1 kv.km 688.9 kishi (2011 yil)

Xo'jaligi

Tuman xo'jaligi asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Sanoat, transport, aloqa korxonalari bor fermer xo'jaliklari paxtachilik, bog'dorchilik,

sabzavotchilik, balikchilik, asalarichilik, chorvachilik va pillachilik bilan shug'ullanadi. Tumanda O'zbekiston-Amerika «KLAINA-TEXTTEL» qo'shma korxonasi, kichik va xususiy korxonalar, «Norin Tola» aktsiyadorlik jamiyati va boshqalar mavjud. Kishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik. Norin tumanida 10 ta MMTP xududida joylashgan 283 fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda, Tuman fermer va shaxsiy xo'jaliklarida 34.1 ming bosh qoramol, 29.2 ming bosh qo'y va echkilar, 93.8 ming parranda boqiladi. 2011 yilda tumanimiz kishlok xujalik maxsulotlarini ishlab chikarish buyicha galladan 5361 ga yerdan, xar gektaridan 65.0 tsentnerdan jami 39430 tonna galla xosili yetishtirgan, 7109 ga paxta maydonidan xar gektaridan 31.4 tsentnerdan jami 22287 tonna xosil olindi. 522 gektar kartoshkani xar bir gektaridan 230 tsentnerdan jami 12986 tonna kartoshka, 784 gektar sabzavotni xar gektaridan 231 tsentnerdan jami 27370 tonna sabzavot, 123 gektar polizni xar gektaridan 226 tsentnerdan jami 5340 tonna sabzavot, 809 gektar mevali bog'ni xar gektaridan 65 tsentnerdan jami 5275 tonna meva, 183 gektar uzumni xar bir gektaridan 109 tsentnerdan jami 1994 tonna uzum va boshka kishlok xujalik maxsulotlari yetishtirildi. Tumanimizda yalpi kishlok xujalik maxsulotlari ishlab chikarish 2011 yilda 92039.9 mln.sumga, 2010 yilga nisbatan 105.6 foizga, Sanoat maxsulotlari ishlab chikarish 28152.9 mln.sumga, utgan yilga nisbatan 106.6 foizga, Xalk istemol mollari ishlab chikarish 5507.7 mln.sumga, 144.0 foizga, Chakana savdo 48907.6 mln.sumga, utgan yilga nisbatan 107.9 foizga, Pullik xizmat 12506.3 mln sumga, utgan yilga nisbatan 103.3 foizga. Maishiy xizmat kursatish 2204.3 mln sumga, utgan yilga nisbatan 111.1 foizga. Investitsiya kiritish 23115 mln sumga, utgan yilga nisbatan 130.0 foizga. Kurilish ishlari 21580.8 ln.sumga, utgan yilga nisbatan 116.7 foizga. Tashki savdo aylanmasi 1198 ming AQSH dollarga, utgan yilga nisbatan 50,6 foizga. Eksport 662,9 ming AQSH dollarga utgan yilga nisbatan 17,7 foizga. Import 535,1 ming AQSH dollarga, utgan yilga nisbatan 226,1 foizga bajarildi. Tumanda 2009-2011 yillarda umumiy 45 ta ta'lim maktabi bo'lib 19680 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda, 7 ta kasb xunar kollejida 7668 nafar talaba, 47-maxsus maktab internatida 218- nafar ukuvchi ukiydi, 1 ta-akademik litseyda 519-nafar o'quvchi o'qiydi, 14-maktab internatida 230 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Tumanda 45 ta bolalar bog'chasi bulib 3458 ta kichkintoy bolalar tarbiya olmoqda. Tumandagi xar bir maktablarda 1-tadan jami 45 ta kutubxona mavjud. Tuman markazida tarixiy muzey tashkil etilgan. Tumanda 1-madaniyat saroyi, 12 qishloq madaniyat uyi bulib 52 nafar ishchi xodim faoliyat kursatmoqda, tumanda «Guldasta» xalq ansambli «Xo'rozcha» xalq qo'g'irchoq teatri xamda xalq dorbozlar guruxi faoliyat ko'rsatmoqda. Norin tumanidagi 1-ta markaziy kasalxona va 26 ta davolash va tibbiyot muassasalarida 189 nafar vrach, 1071 nafar o'rta tibbiy xodimlar mexnat qilmoqdalar.

1-rasm



Page 20 of 20

2.3 Web sahifani yaratishda foydalanilgan dasturiy vositalarning imkoniyatlari.

Menga kurs ishi sifatida “Norin tumanining hududiy geografik joylashuvini” web sahifa qilib yaratish mavzusi topshirilgan. Men ushbu topshiriqni Front Page xamda shock Wawe Flash (swf) dasturidan ham foydalanib yaratmoqchiman. Men ushbu dastur xaqida boshlang’ich kursda kerakli ega bo’lib, xozirgacha bu topshiriqni bajarish maboynida yanada qo’shimcha malumotlarga ega bo’ldim.

Front Page programmasi orqali nafaqat web sayt va web saxifalar tuzish balki ularni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish haqida mumkinligini bildim.

Quyida Front Page amaliy dasturida foydalanish maboynida men to’plagan nazariy ma’lumotlarim o’rin olgan. Front Page dasturining asosiy uch oynasi uchta tarkibiy qismga bo’lingan bo’lib, ular web saytni xar xil usulda boshqarishga yordam beradi. Birinchi qismning nomi **Views bar** (ko’rish rejimlari paneli) deb ataladi va u **Web-sayt** ni ko’rish rejimlarini o’zgartirishga yordam beradi. Ular bilan quyida tanishishingiz mumkin:

Page (Sahifa) – **Web-sahifa** larni ko’rish va taxrirlashga imkon beradi.

Folders (Papka) - Joriy **Web-sayt** larning papkalari ruyxati va fayllarini ko’rishga imkon beradi.

Reports (Hisobot) – Joriy **Web-sayt** ning holati haqida jadval shchaklidagi xisobotni ko’rsatadi, shu jumladan, ushbu rejimda noto’g’ri ilovalar va sekin ishlaydigan sahifalar sonini ko’rib chiqish mumkin.


Navigation (Navigatsiya) – Joriy **Web-sayt** ning daraxtsimon tuzilishini ko’rish imkonini yaratadi. **Folder list (Papkalar ruyxati)** ruyxatida ushbu saytning papka va fayllari ko’rinadi.

Tasks (Masalalar) - Joriy **Web-sayt** bilan ishlagan davrda bajarilishi lozim bo’lgan masalalar ruyxatini aks ettiradi.

Web-sayt yaratish jarayonida masterlar ishlatilgan taqdirda, masalalar ruyxati to’ldirilishi mumkin yoki siz o’zingiz ham o’z masalalaringizni bu erga qo’shib qo’yishingiz mumkin.

Hyperlinks (*Giperilovalar*) - Joriy **Web-sayt** ga va undan bo'lgan giperilovalarning o'zaro bog'lanishining grafik tuzilishini sxema tarzida ko'rsatadi.

Agarda birorta **Web-sahifa** ni ko'rish kerak bo'lsa, uni sichqoncha ko'rsatgichi orqali turtish zarur bo'ladi va o'ng tomondagi darchada yoki maxsus oynada sahifaning mazmuni paydo bo'ladi:



2-rasm

Ekranning pastki qismida joylashgan *xolatlar paneli* (**Status bar**) da ushbu sahifani uch xil holatda ko'rish mumkin bo'ladi. Ularning biri **Normal** deb atalib, unda **Web-sahifa** ni tahrirlash mumkin, ikkinchisida esa sahifani **HTML** kodlari ko'rinishida ko'rishimiz va **Preview** deb atalgan uchinchisida esa sahifa Internetda qanday ko'rinishda bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Papkalar ruyxatida joriy **Web-sayt** ga tegishli barcha fayllar va papkalarni, joriy sahifani esa sahifalarni tasvirlovchi oynasida ko'rishimiz mumkin.


Master va shablonlar yordamida Web-sayt yaratish.

O'rganilayotgan dastur yordamida **Web-sayt** larni uch xil usuldan foydalangan xolda yaratish mumkin:

- Maxsus programmalar – Masterlar (**Wizard**) yordamida;
- Shablonlar yordamida;
- Oldindan tayyorlab qo'yilgan fayllar yordamida.

Ularning qaysi birini tanlab olish shart-sharoitga bog'liq ravishda va yaratilayotgan **Web-sayt**ning qanday bo'lishiga qo'yilgan talablar asosida aniqlaniladi. Quyida biz masterlar yordamida **Web-sayt** tashkil qilishni ko'rib chiqamiz. Masterlar bir necha xil bo'lib, ular xilma-xil turga mansub oddiy yoki murakkab **Web-saytlarni** maxsus dialog oynachalari orqali tashkil qilishga imkon beradi. Xar bir dialog oynasidagi savollarga aniq va to'g'ri javob berilsa,

foydalanuvchi talablariga javob beradigan **Web-saytlarni** osonlik bilan yaratish mumkin bo'ladi. Bu usulni ko'rib chiqish uchun **Windows** ning asosiy oynasidagi **Start (Pusk)** tugmachasi bosilib, undan **Programs (Programmi)** punkti tanlab olinadi va undan **Microsoft Front Page** belgisi turtuladi. Ishga tushgan **Front Page** dasturi oynasidan **File (Fayl)** buyrug'ining **New (Sozdat)** imkoniyati tanlansa, unda **Web** buyrug'i ko'rinadi. Agarda u tanlangan taqdirda ekranda **New (Sozdat)** dialog oynasi xosil bo'ladi:




3-rasm

Bu oynadan **Web-sayt** larning qanday turga mansub bo'lishini tanlab olish mumkin. Ya'ni, undan foydalanib, **Web-sayt** hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir qancha masterlarni ishga tushirish mumkin. Ularning biri **Master (Wizard) Discussion Web** bo'lib, uning yordamida muhokamalar tashkil qilishga mo'ljallangan **Web-sayt** lar tashkil qilish mumkin. Bunday saytning foydalanuvchilari boshqalarning ma'lumotlarini ko'rishlari, ularga javoblar yuborishlari yoki o'z ma'lumotlarini saytda joylashtirishlari mumkin. Ikkinchisi **Master (Wizard) Import Web** deb atalib, kompyuteringizdagi yoki **Web-server**dagi fayllar asosida yangi **Web-sayt** lar qilish imkonini beradi. Saytni yaratib bo'lgandan so'ng **Web** – sahifalarni yoki sayt tuzilishini o'z ehtiyojingga mos ravishda o'zgartirishingiz yoki to'ldirishingiz mumkin. Ushbu master oldindan mavjud bo'lgan **Web-saytlaringizni** yangilash va tekshirish uchun juda qo'l kelishi mumkin. Keyingi master **Master (Wizard) Corporate Presence** deb nomlangan va u tashkilotlarning yoki kompaniyalarning **Web-sayt** larini yaratishga imkon beradi. Yuqoridagi oynadan boshqa turdagi masterlarning bajaradigan ishlarini ham ko'rib chiqishingiz mumkin. Quyida **Corporate Presence Wizard** deb nomlangan master yordamida **Web-sayt** hosil qilishni ko'rib chiqamiz. Bunday sayt uy sahifasini, mundarijalar jadvalini, yangiliklar sahifasini, mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga olgan direktoriyni, har bir mahsulot yoki xizmat turiga bag'ishlangan **Web** – sahifalarni, foydalanuvchilar bilan muloqotni tashkil qilishga mo'ljallangan sahifani hamda tashkilot saytida ma'lumotlar axtarishga imkon beradigan **Web** – sahifani o'z ichiga qamrab oladi.

Endigi ishimiz yuqoridagi oynadan **Corporate Presence Wizard** nomli belgini sichqoncha ko'rsatgichi bilan bir marta turtish (belgilash) bo'ladi. Natijada **Front Page** dasturi sayt tashkil qilish uchun **Corporate Presence** masterini ishlatish kerakligi haqida topshiriq oladi. Endi **Specify the Location of the New Web** (Yangi **Web-sayt** ning joylashuvi aniqlansin) deb nomlangan maydonda quyidagi buyruqni terishingiz kerak bo'ladi:


C:\My Webs\MyWizardDemo

Bu buyruq yordamida **Front Page** dasturi xuddi shu nomli papka xosil qiladi va barcha **Web** fayllarni xuddi shu papkaga joylashtiradi. Agarda siz boshqa disk bilan ishlayotgan bo'lsangiz, yuqoridagi **S** harfini boshqasiga almashtirishingiz kifoya. Endi **OK** tugmachasini tugmasini turtib. Bunda **Corporate Presence** masterining quyida ko'rsatilgan birinchi oynasi ochiladi:




4-rasm

Ushbu oyna masterning nima ekanligini va qanday ishlar bajarishini tushuntiradi. Endi bu oynadagi **Next (Dalee)** tugmasi bosilsa, **Web** – sahifaga joylashtirilishi lozim bo'lgan sahifalar ruyxati chiqadi va siz undan keraklilarini tanlab olishingiz mumkin:




5-rasm

Sizning nimalarni tanlaganingizga bog'liq ravishda **Master** yaratilayotgan saytda xilma-xil dialog oynalarini aks ettiradi. **What's New (Yangiliklar)** va **Search Form (Qidiruv formasi)** maydonlariga sichqoncha ko'rsatgichini keltirib, uning chap tugmasi bosilsa, darchalardagi tegishli belgilar yo'qoladi. Demak, bu ishni qilsangiz, sizning saytingizda xuddi shu bo'limlar bo'lmaydi. Tanlov nihoyasiga etgandan so'ng, **Next (Dalee)** tugmachasi turtilsa, ekranda sizning saytingizda aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni tanlash imkoniyatini yaratadigan quyidagi oyna tasviri hosil bo'ladi:




6-rasm

Ushbu oynadagi **Introduction (Kirish)** maydoniga belgi qo'yilsa, saytda yana bir bo'lim – **Kirish** hosil qilinadi. Yana **Next (Dalee)** tugmachasi turtilsa, ekranda mahsulot va xizmatlar (**Products – mahsulotlar, Services – xizmatlar**) uchun qancha miqdordagi sahifalar ajratilishi kerakligini aniqlashga imkon beradigan dialog oynasi hosil bo'ladi:



7-rasm

Ularning kerakli bo'lgan sonini kiritgandan so'ng, yana **Next** (*Dalee*) tugmachasi turtlsa, ekranda yaratilayotgan saytda mahsulot va xizmatlar haqida qanday ma'lumotlar bo'lishini aniqlashga imkon beradigan quyidagi dialog oyna hosil bo'ladi:




8-rasm

Ularning ichidan keraklilarini belgilab bo'lgandan so'ng yana bir marta **Next** (*Dalee*) tugmachasi turtilsa, ekranda **Web** – saytga kiruvchilar haqida qanday ma'lumotlar olishingiz kerakligini aniqlashga imkon beruvchi dialog oynasi hosil bo'ladi:




9-rasm

Ushbu ma'lumotlarni beruvchi sahifaning nomi **Feedback** (*Teskari aloqa*) deb ataladi va uning qanday ko'rinishda bo'lishi keyingi dialog oynalari orqali aniqlanadi. Keyingi qadamlarda **Web** – sayt mundarijasi qanday ko'rinishda bo'lishi, sahifalar dizayni o'z ichiga nimalarni olishi, tugallanmagan sahifalar qanday simvol orqali belgilanishini tanlab olinadi. Bu ishlarni bajarish oqibatida ekranda quyidagi dialog oynasi hosil bo'ladi:




10-rasm

Ushbu oynadan foydalanib, tashkilot to'liq nomi, uning qisqa nomi va manzili yaratilayotgan **Web** – saytga kiritiladi. Yana bir marta **Next (Dalee)** tugmachasini bosish qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishini so'raydi. Uni kiritib bo'lgandan so'ng sahifalarda ishlatiladigan ranglar, grafikalar va shriftlar haqida ma'lumot so'raladi. Bu savollarning barchasiga javob berib bo'linganidan so'ng, oxirgi oynada **Finish (Gotovo, Tayyor)** tugmasi turtuladi. Biroz vaqtdan so'ng, sizning saytingizning boshlang'ich versiyasi tayyor bo'ladi. Uning uy sahifasi (**Home Page**) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



11-rasm

Uning tuzilishini ko'rish uchun chap tomondagi **Navigation (Navigatsiya)** belgisini turtish kifoya. Bunda sahifalar orasidagi o'zaro aloqani ko'rsatadigan quyidagi sxema shaklidagi tasvir hosil bo'ladi:




12-rasm

Hosil bo'lgan sxemadagi to'rtburchaklar ko'rinishida ifodalangan istalgan sahifani ko'rish uchun esa undagi tegishli belgini sichqoncha ko'rsatgichi bilan ikki marta turtiladi, masalan uy sahifasini ko'rish uchun **Home Page** belgisini ikki marta turtish kerak bo'ladi. Bu ishni bir qancha sahifalar uchun bajarib ko'rishingizni tavsiya qilamiz, chunki bunda yaratilayotgan sahifalarning qanday bo'layotganini ko'rib va o'rganib chiqishingiz mumkin. Bunda har bir sahifani o'zgartirish va unga xilma-xil qo'shimcha ma'lumotlar qo'shish imkoniyati mavjud. Bu ishlar bajarilgandan so'ng, sayt tayyor bo'ldi desak ham bo'laveradi. Agar keyinchalik saytga hamda uning istalgan sahifasiga o'zgarishlar kiritish yoki uni rivojlantirish va mukammallashtirish kerak bo'lsa, ular ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Barcha kerakli o'zgarishlarni amalga oshirib hamda tegishli ma'lumotlarni kiritib bo'lgandan so'ng, ushbu saytni saqlab qo'yish kerak bo'ladi. Buning uchun **File (Fayl)** menyusidagi **Close Web (Web-sayt yopilsin)** buyrug'i tanlab olinadi. Ushbu buyruq bajarilishi natijasida hosil qilingan saytning yopilishi amalga oshadi. **Web-saytlarga** nom berganda so'zlar orasida probellar (bo'sh joylar) bo'lmasligiga e'tibor berish kerak, chunki ko'pchilik **Web-serverlar** fayllar nomidagi probellarga tushunmaydilar. Agar **Web-fayllarning** nomlari bir necha so'zlardan iborat bo'lsa, u xolda bu so'zlarni bir-biridan ajratish uchun tagiga chizish «_» (podcherkivanie) belgisidan foydalanish mumkin.

Agarda yaratgan **Web-saytingizga** biror bir yangi sahifa qo'shish kerak bo'lib qolsa, u holda bu sahifalarni mustaqil ravishda **Web-sahifalar**

shablonlaridan foydalangan holda yaratishingiz mumkin. Shablon yordamida sahifalar hosil qilish uchun programmaning asosiy oynasidagi **Page** (Sahifa) tugmasini belgilaysiz va so'ngra **File (Fayl)** menyusidan **New (Sozdat)** punktini tanlab, undan **Page (Stranitsa)** buyrug'ini tanlaymiz. Buning natijasida **New**

(Sozdat) dialog darchasi hosil bo'ladi va undan foydalangan holda bizga kerak bo'lgan sahifa shablonini tanlab olishimiz mumkin:



13-rasm

Shablonlar yordamida Web-sayt tashkil qilish

Ma'lumot kiritishni so'rab, ular asosida saytlar tashkil qiladigan masterlardan farqli ravishda shablonlar tayyor **Web**-saytlar asosida ishlashga imkon yaratadi. Bunda oldindan tayyorlab qo'yilgan **Web**-saytlarni tanlagan holda, ularni o'z talablaringizga moslashtirishingiz yoki o'zgartirishingiz mumkin. **Front Page** programmasi quyidagi shablonlar bilan ishlashga imkon yaratadi:

Personal Web (Shaxsiy sayt) – bunday sayt o'z ichiga shaxsiy ma'lumotlarni qamrab oladi. Unda fotoalbom, muallif qiziqishlarini ko'rsatadigan sahifa, boshqa saytlarga bo'lgan murojaatlar bo'lishi mumkin.

Project Web (Loyiha sayti) – bir loyiha ustida ishlayotgan bir qancha

mutaxassislar orasida ma'lumot almashinishni ta'minlab beradigan sayt bo'lib, u guruh a'zolari ruyxati sahifasini, ish jadvali sahifasini, loyiha haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan sahifani, ma'lumot almashinish darchasini hamda saytda ma'lumot axtarishni ta'minlab beradigan sahifani o'z ichiga oladi.

Customer Support Web (Iste'molchilarga xizmat sayti) – ushbu sayt orqali tashkilot iste'molchilarning savollariga javoblar berishi va ular bilan muloqotni amalga oshirishi mumkin. Bunday sayt ma'lumotlar almashinishga imkon beradigan sahifani, tez-tez berilib turadigan savollarga javoblar sahifasini (**FAQ – Frequently Asked Questions**) , saytga kiruvchilar o'z takliflarini bera oladigan forma sahifasini o'z ichiga olib, saytdan ma'lumotlar va programmaviy ta'minot olish imkoniyatini ham yaratib beradi.

One Page Web (Bir sahifali sayt) – faqat birgina sahifadan iborat sayt tuzishga imkon beradi.

Empty Web (Bo'sh sayt) – Mustaqil ravishda tashkil qilinadigan **Web**-sayt bo'lib, o'z tarkibigi xech qanday tayyor **Web**-sahifalarni olmaydi.


Endi **Customer Support** shabloni yordamida **Web**-sayt yaratishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun **File (Fayl)** menyusidan **New (Sozdat)** punktini tanlab, undan **Web** punktini tanlaymiz. Hosil bo'lgan oynadan **Customer Support Web** (Iste'molchilarga xizmat sayti) belgisi tanlanib turtilsa, firma mahsulotlaridan foydalanuvchi iste'molchilarining muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan **Web**-sayt yaratish uchun mo'ljallangan shablon hosil bo'ladi. Lekin belgini turtishdan oldin **Specify the Locations Of the New File** (Yangi **Web**-saytning joylashishi) deb nomlangan maydonda yaratilmoqchi bo'lingan saytning nomini yozish kerak bo'ladi.

Agarda **Folder List** (Papkalar ruyxati) deb nomlangan panelda **index.htm** fayli turtilsa, yaratiladigan **Web**-saytning uy sahifasi ekranda namoyon bo'ladi:

2.4. Web sahifani yaratish ketma-ketligi.


Menga kurs ishi sifatida Web sahifa yaratish mavzusi berilgan. Bu Web sahifani yaratishda quyidagi ketma-ketlikda bajariladi. Buning uchun menga kerakli dasturlardan foydalanaman bu dasturlar FrontPage va SWFT.Text dasturidan foydalaniladi.

Dastlab Microsoft Front Page dasturini ishga tushirdim. Ekranda yangi oyna hosil bo'ladi.



15-rasm

Endi dasturni tayyorlanish jarayonini ko'rib chiqamiz. Bu dasturdan gipersilka, menyu yaratish, malumot kiritish ya'ni maruzalar rasmlar kiritishdan foydalanamiz birinchi bosqich MS FrontPage dasturini ishga tushirib bizga kerakli shablonni chaqirib olamiz.



16-rasm


Eng avvalo web sahifamizga nom berib o'tamiz bu nom dunyoning qaysi bir burchagidan foydalanuvchilar foydalanishlari uchun kerak bo'ladi. Men web sahifamni "NORIN TUMANI" deb nomladim bu uz domen bilan har qanday inson har qanday joyda foydalanishlari mumkin.

Bizga shablonda tayyor menyu berilgan bo'lsa menyuni o'zimiz hohlagan nom bilan o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi buning uchun sichqonchada menyuni blokga olib nomini ixtiyoriy nom bilan o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi. Menyuni ko'paytirish uchun menyudan ko'piya olishimiz kerak bo'ladi buning uchun klaviyatoriyadan ctrl+c va ctrl+v kerak bo'ladi nusxa olib o'rnatamiz va menyu nomlarini o'zgartiramiz va undan so'ng quydagicha rasm menyu paydo bo'ladi.




17-rasm

Web sahifa uchun muqova kerak bo'ladi buning uchun menga SWFT.Text dasturi kerak bo'ladi bu dasturni ishga tushirib olamiz va dasturimizni ko'rinish razmerlarini to'g'irlab olamiz buning uchun Rolik tanlanadi quyidagi oyna hosil bo'ladi bu oynadan o'zimizga kerakli razmerni tanlab olamiz.



18-rasm

Yana muqova yozuvlarini yaratish uchun Текст oynasini ochib olamiz va kerakli ma'lumotlarni kiritib olamiz va yana yozuvlarimizga animatsiya bershimiz uchun Текстовые эффекты ni tanlaymiz. Va dasturimizga fon kerak bo'ladi buning uchun Фон tanlab olamiz bu oynadan изображениени tanlab olamiz va undan обзор ni aktiv holatga o'tadi обзор ni tanlab bizga kerak fonni yo'nalishini berib qo'yamiz va quyidagi oyna hosil bo'ladi.




19-rasm

Shundan so'ng quyidagicha oyna paydo bo'ladi.




20-rasm

Yana ma'lumat va rasm joylashtirish uchun kerakli ma'lumot va rasmni tanlab klaviyatoriya dan nusxa olish uchun ctrl+c tanlanadi va o'rnatish uchun ctrl+v tanlanadi va quyidagicha oyna hosil bo'ladi. Ma'lumotlar joylashtirilib olinib oxirgi ish menyularni bog'lash qoldi buning uchun kerakli menyuni blikga olinib sichqonchaning o'ng knopkasini bosamiz va oynadan свойтва гиперсилки bosiladi va quyidagicha oyna xosil bo'ladi va ok bosiladi.



21-rasm

Shunday qilib, hamma menyularda свойтва гиперсилки bo`g`lab Va shu bilan tayyorlanayotgan shablonizmizni foydalanishimiz mumkin. Men bu web sahifani yaratish uchun kerakli shablondan foydalandim shablonimni tayyor xolatida ko`rinishi...



22-rasm




23-rasm

2.5. Yaratilgan Web sahifadan foydalanish yo'riqnomasi.

Menga kurs ishi sifatida “NORIN TUMANINING GEOGRAFIK HUDUDIIY JOYLASHUVI” mavzusi Web sahifadan foydalanish yo'riqnomasi quyidagilardan iborat .

Bosh sahifa – bu menyuda **NAMANGAN VILOYATI NORIN TUMANI**

haqida bayon etilgan. Umuman olganda, Norin tumanining hududiy geografik joylashuvini foydalanuvchilar tumandagi tarixini, hozirgi kundagi orni, talim muassasalari, ishlab chiqarish korhonalari haqida malumot mavjud.




24-rasm

Tuman tarixi - bu menyuda Norin tumanining tarixi
haqida ma'lumotlar bayon etilgan.



25-rasm

Geografik joylashuvi - bu menyuda Norin tumanining geografik joylashuvi, tabiati bayon etilgan. . Uning qachon tashkil topgani, qoshni chegaralari, qehqonchilik, pillachilik, paxtachilik, past baland tekisliklari, iqlimi, axolisi, xojaligi ma`lumotlarni olasiz.




26-rasm

FOTO – bumenyuda Norin tumanining rasmlari aks ettirilgan




27-rasm

Ta'lim muassasalari- bu menyuda Norin tumanidagi talim muassasalari kollej va akademik litseylar haqida ma'lumotlarni olasiz va yuklab olishingiz mumkin.




28-rasm

Ishlab chiqarish korhonalari - bu menyuda tumandagi ishlab chiqarish korhonalari haqida ma'lumotlarni olasiz va yuklab olisingiz mumkin.



29-rasm

Yana narxlar va sotuvdagi sotuvdagi velesapedlar va uning zapchaslari haqida malumot olasiz.



30-rasm

Muqova – bu menyuda web sahifani asosiy oynasi bo'lib, muqova va web sahifani yaratgan **admin** haqida ma'lumot bo'ladi.

Internet ma'lumotlar

Xulosa

Xulosa

Menga kurs ishi mavzusi sifatida Norin tumaning hududiy geografik joylashuvini web sahifa qilib tayyorlash vazifasi qo'yildi. Mavzuga kerak bo'ladigan ko'plab ma'lumotlar bilan ishladim. Bu izlanishlar natijasida web sahifani yaratishni o'rgandim.

Bu esa keyinchalik amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan dasturlar va web sahifalarni tayyorlashga asos bo'ldi deb o'ylayman. Bu web sahifani tayyorlashda foydalangan dasturlarim haqida to'liq ma'lumotlarni bilishim kerak. Buni tayyorlashda Front Page dasturini o'rgandim va ular bilan ishladim, ma'lumotlarni qidirdim va shunga amin bo'ldimki bu soha qanchalik kirganimiz sari uning naqadar o'rganayotgan ishlarimiz kamligini bildim. Web sahifamga ma'lumot qidirib juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lgan bo'lsam. Endi dastur yani web sahifamni tayyorlash uchun Front Page dasturi bilan ishlashga mo'ljallangan ekan. Dasturni yani Front page haqida mukkamal ma'lumotlarga ega bo'ldim.

B yaratgan web sahifamni foydalanishda O'zbekiston balki butun dunyo internet tizimidan foydalanuvchilar istalgan joydan internet tarmogi orqali Norin tumanining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi, axolisi, geografik o'rni, tabiati, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari haqida bilish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim kerakki kurs ishi bu bizlarni ishlashga chorlaydigan dastur bo'lib xizmat qilmoqda. Endilikda Front Pageni yanada chuquroq o'rganib bundanda ko'ra mukkamalroq web sahifa yaratmoqchiman. Men buning uchun o'qib o'rganishim va harakatdan toxtamasligim zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. R.Maraximov S.I. Raxmonqulov 'Internet va undan foydalanish asoslari' Toshkent 2011
2. A.A. Abdulqodirov 'Informatika va hisoblash texnikasi asoslari' Toshkent 1996
3. H. G'ulomov "Kompyuter tarmoqlari" Toshkent 2000y
4. M.Aripov "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" Toshkent 2001
5. R.Boqiyev U.Yo'ldashev "Informatika" Toshkent 2001
6. A.A. Abdukodirov A.G'. Xayitov, R.R shodiyev "Axborot texnologiyasi" Toshkent 2002
7. S .Komilov "Informatika axborotlar texnologiyasi" Uslubiy q'llanma '2' 2014

Foydalanilgan internet saytlari.

- 1 Gov.uz- O'zbekistan Respublikasi hukumat portal
2. www.uz – Milliy axborot qidiruv tizimi
3. edu.uz – Oliy va o'rta ta'lim vazirligi
4. lex.uz - O'zbekiston respublikasi qonun xujatlari
5. uza.uz/uz/business - O'zbekiston milliy axborot agentligi
6. wikipedia.org -barcha ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan sayt.